

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10150071>

Kadirova Nilufar Mirzaakbarovna

*Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD)*

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning amaliy-metodik ahamiyati va tashkiliy-pedagogik asoslari haqida ilmiy farazlar bayon qilingan. Bundan tashqari o'quvchi-yoshlarni tog'ri kasb-hunar tanlashdagi muammolar, bu muammolarni yechimini topishga qaratilgan amaliy-metodik tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar va tushunchalar

kasb-hunarga yo'naltirish, o'zligini anglash, ruhiy ilhomlanish, assotsiativ holat, qobiliyat, qiziqish, xususiyat.

НАПРАВЛЕНИЕ УЧЕНИКОВ К ПРОФЕССИЯМ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Кадирова Нилуфар Мирзаакбаровна

док. фил. пед. наук(PhD),

Заведующий кафедры методики дошкольного, начального и специального образования Национального центра по обучению педагогов новым методикам Наманганской области

Аннотация

В данной статье изложены научные гипотезы о практическо-методической значимости и организационно-педагогических основах использования современных педагогических технологий в процессе образования. Кроме того, были даны проблемы выбора правильной профессии для учеников и практические и методические рекомендации, направленные на поиск решения этих проблем.

Ключевые слова

карьерная ориентация, личность, духовное вдохновение, ассоциативное состояние, способности, интерес, черты характера.

DIRECTING STUDENTS TO PROFESSIONS BASED ON MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

N.M.Kadirova

Namangan regional national center of teaching new methodologies to teachers, head of the Department of Pre-School, Primary and Special Education Methods, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Abstract

This article describes scientific hypotheses about the practical-methodical importance and organizational-pedagogical foundations of the use of modern pedagogical technologies in the process of education. In addition, problems in choosing the right profession for students and practical and methodical recommendations aimed at finding solutions to these problems were given

Keywords

career orientation, self-awareness, spiritual inspiration, associative state, ability, interest, characteristic

Kishi kasb ijodkorligiga erishgan taqdiridagina har jihatdan uyg'un, rivojlangan, ma'naviy barkamol shaxs bo'la oladi. Shunda kasb uning hayotini yuksak ahloqiy mazmun bilan boyitadi, jamoa turmushini bezaydi. Yoshlik chog'idan o'z iqtidorini namoyon qila olgan, qilayotgan mehnatidan zavqlanib yashagan inson kasbini to'g'ri tanlagan insondir.

O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish - bu ularning qiziqishlari, moyilliklari, layoqatlari hamda shakllangan qobiliyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashishdan iboratdir. O'spirinlik yoshi - o'zligini anglash va dunyoqarashning shakllanish davri bo'lib, ularni "Men kimman?", "Qanday odamman?", "Men nimaga intilyapman?" - degan savollar o'ylantirishi tabiiy hol.

O'zligini anglash - bu o'z ichki dunyosini kashf qilish, u haqda yaxlit bir tasavvurga ega bo'lish, o'z-oz'iga emotsional munosabat, aqliy, ahloqiy va irodaviy sifatlarni baholash (o'z-o'zini baholash)dir. Biz pedagoglar aynan shunday kasb egalarini yetishtirmog'imiz lozim. Buning uchun darslarni innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Quyida o'quvchilarda kasb ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan turli kasb-hunarlar haqida ma'lumot berish va kasb tanlashga o'rgatishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan namunalar keltiramiz.

O'quvchilar bilan "Do'stlik" metodini qo'llash. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga do'stlik nomi bitilgan maktublar beradi, ikkita o'quvchiga bitta maktub berilib, do'stona muhokamaga kirishishadi. Bu metod orqali o'quvchilarimiz bir-birlariga bo'lgan, mehr-oqibat tuyg'ularini shakllantirish bilan bir qatorda, kasb tanlashning kelajakda inson hayotida o'rni to'grisida ma'lumotlar olishadi.

Do'stlik: Kasbga ta'rif bering? Javob: Kasb ma'lum darajada tayyorgarlikni talab etadigan, Davlatning qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan, bajaruvchiga iqtisodiy foyfa keltirish imkoniyati mavjud bo'lgan alohida faoliyat turidir.

O'quvchilarga "Do'stlik" maktubida berilgan savollardan namunalar:

- Tirishqoqlik nima?

Tirishqoqlik - biror ishni amalga oshirayotganda, toki u muvaffaqiyatli natijaga erishgunga qadar shaxs tomonidan ushbu ishni bajarishga ko'p marta urinishdir.

- Yaxshi kasb tanlash imkoniyati har qanday shaxsda bo'ladimi?

Ha. Istisnosiz.

- Kasb tanlash sohasida shaxsning imkoniyatlari qanday o'lchanadi?

1) bilim olish istagi, manbalari (kasb tanlashga doir adabiyotlar, gazeta va jurnallar, internet va h.k) ning mavjudligi bilan;


2) mehnat qilish istagi va ruhiy ilhomlanish (shavqu-zavq, g'ayrat, ishtiyoq)ning bo'lishi bilan;

3) maqsadga erishish uchun imkoniyat - irodaning mavjudligi hamda maqsad, manfaat, qiziqish va qobiliyat shakllanganligi bilan o'lchanadi.

- O'zingizning kuchingizga va porloq kelajagingizga ishonchni mustahkamlash deganda nimani tushunasiz?

Ruhiy ilhomlanish shavq - zavq, g'ayrat, ishtiyoqning bo'lishi insonga qanoat bag'ishlaydi, ulug'laydi, yuksaklikka ko'taradi, shon - sharaf keltiradi. Ilhomlanish o'zingizga, o'z kuchingizga, qo'ygan maqsadingizga, farovon hayotga yetishishingizga shubha yo'qligiga ishonishingiz bilan shakllanadi. Shundagina sizlar oldingizga qo'ygan maqsadingizga erishasiz.

O'quvchilar bilan "Shaxsda faoliyatning yuzaga kelishi ketma-ketligi"ni tushuntirish, ularda maqsadning aniq shakllanishi ifodalanadi (1-rasm).




1-rasm. Shaxsda faoliyatning yuzaga kelish ketma-ketligi

“Kasb – xazina, uni izlab topish kerak”, lekin qanday qilib?

- O‘quvchilar farovon hayot deganda nimalarni bilishlari va uni izlab topish uchun, nimalarni o‘zida mujassam etish zarurligi to‘g‘risida ma‘lumotlar olishadi. Inson farovon hayotga erishishi uchun: Bilimga, mehnatsevarlikka va tirishqoqlikka intilib yashashi zarur (2-rasm).

“Kelajakda men kim bo‘laman?” degan savol hayot bo‘lag‘asida turgan yoshlarni, har qanday yoshdagi shaxsni qachondir o‘ylantirgan va chuqur mulohaza qilishga chorlagan. Agar inson farovon va baxtli yashashni niyat qilgan bo‘lsa, u o‘z qiziqishini, qobiliyatini aniq belgilashi hamda shu asosda hayotda yuqori cho‘qqilarni zabt etish uchun hozirdan izlanib, kitoblar mutoalaa qilishi, o‘zing qinziqishi va qobiliyatiga mos bo‘lgan kasbni tanlashi zarur.




2-rasm. Yaxshi hayotga erishishning modeli

“Qo‘ziqorin” metodi, avvalo o‘quvchilarga qo‘ziqorinning qanday o‘simlik ekanligi to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi, so‘ngra ushbu mantiqiy masalani

yechiladi: “Inson ulg‘aygan sari mana shu qo‘ziqoringa o‘xshab qolmasligi uchun nimalarga yoshlikdan e‘tibor berishi kerak?” – bu mantiqiy masala orqali o‘quvchilarga o‘zlari yoqtirgan kasbni mukammal o‘rganishlari uchun qulay metod hisoblanadi. Har bir o‘quvchi o‘z fikrlarini bildirishadi va doskada ifoda etishadi. “Qobiliyatsiz odam qo‘ziqoringa o‘xshaydi. Bo‘yi bor-u, ildizi yo‘q” - o‘quvchilar bilan assotsiativ holat ya‘ni tasavvurlarini kengaytirish metodi o‘tkazilib, bunda o‘quvchilar oldiga tuproq yoki dala tasavvuri, turli xildagi o‘simlik urug‘laridan tarqatiladi, olinadigan hosilni ham tushuntirib beriladi (3-rasm).

O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi tasavvur bilan ushbu holatni tushuntiradi, hamda o‘quvchilar o‘zlari ham amaliy ko‘rsatib berishadi va fikrlari to‘liq tinglanib, ularda kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini kengaytiriladi.



3-rasm. “Qo‘ziqorin” metodi tuzilmasi

Assotsiativ holat: “Faraz qiling siz tasavvuringizdagi vodiyning o‘rtasida turibsiz. Ushbu vodiya xilma-xil tuproqlik dalalardan tashkil topgan. Sizning qo‘lingizda bir necha xil o‘simliklarning urug‘lari bor. Siz urug‘larni dalalarga sepishingiz va hosil olishingiz kerak. Tasavvurdagi hayotingiz mana shu faoliyatdan oladigan hosilingizga bog‘lik deb hisoblaylik. Albatta, samarali harakat orqali imkon boricha ko‘proq hosil olish sizning maqsadingiz hisoblanadi.

Buning uchun nima qilmoq kerak?”

Yuqoridagi o‘xshatishga quyidagi shartli tushunchalar qabul qilingan:

Vodiy - Mehnat bozori.

Tuproq yoki dala – Mavjud kasblar.

O'simlik urug'i - Sizda mavjud bo'lgan qiziqish yoki qobiliyat (soddalashtirish uchun, qiziqish va qobiliyatni bitta omil deb qaraymiz).

Hosil - Biror kasb sohasida erishadigan yutug'ingiz yoki erishmoqchi bo'layotgan maqsadingiz.

Urug'ni yoki urug'larni sepish bo'yicha amalga oshirayotgan yoki oshirmoqchi bo'layotgan harakatlar kasb tanlash sohasida amalga oshirayotgan faoliyatingiz yoki umumiy qilib aytsak kasb tanlash jarayonidir. Mana shu assotsiativ fikrlash uchun taklif etilgan holatni ko'z oldimizga keltiradigan bo'lsak, unda berilgan savolning yechimi qanday bo'ladi?

Yechim: Hammamizga ma'lumki, imkon qadar yuqori darajada hosil olish uchun har bir urug'ni o'zining "qadrdon" bo'lgan tuprog'iga qadash zarur. Agar biz urug'ni bilmasdan to'g'ri kelgan dalaga sepib tashlasak kam hosil olamiz yoki umuman uni olmasligimiz ham mumkin. Har bir insonning tabiat tomonidan berilgan, tajriba asosida shakllangan qiziqishlari va qobiliyatlari mavjud. Agar inson o'zining qiziqishi va qobiliyatiga to'liq mos keladigan kasbni tanlasa, bunday inson eng yuqori "hosil"ni yetishtirishga erishadi. Bu duradgorlik bo'ladimi yoki bank xodimi bo'ladimi, bundan qat'iy nazar har qanday fikrning to'g'riligini isbot qilish uchun qarama-qarshi bo'lgan fikrni noto'g'ri ekanligini isbot qilish yetarli bo'ladi. Shunday misol keltiramiz, agar na qobiliyati, na qiziqishi bo'lmagan shaxsni majburiy ravishda bank xodimi mutaxassisligi bo'yicha o'qitsak unda nima yuz beradi?

Javobi ayon: Ushbu shaxsni ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan qiynab qo'yishimiz mumkin (u pul ishlab topish uchun qulay imkoniyatga ega bo'lsada), qiziqmagani uchun u o'zining ustida ishlamaydi, buning oqibatida malakasi yetishmaydi, natijada xato qilib qo'yishdan doimiy qo'rqib yashaydi. Bunday holatda nafaqat bank xodimining o'zi, balki unga ish berayotgan bank ham, jamiyat ham zarar ko'radi.

Qiziqish va qobiliyat nima, ular insonda qanday paydo bo'ladi? Ularning soni va darajasi qanday aniqlanadi? Albatta bu savollar siz o'quvchilarga juda qiziqdir. Keling shu o'rinda olimlar nimalarni tadqiq qilganliklari bilan qiziqib ko'raylik. Qiziqish va qobiliyat kasb tanlashda birlamchi sifatlar hisoblanadi, bunday sifatlar asosida tegishli kasbni aniqlaydigan harakatlarning ilmiy nomi "profdiagnostika" deyiladi. Ushbu atama grek tilidan olingan bo'lib, uning aynan tarjimai "profession" - o'z mashg'ulotim hamda "diagnostikos" - aniqlamoq, payqamoq yoki fahmlamoq degan ma'nolarni beradi. Profdiagnostikaning asosiy maqsadi - insonning qiziqishi va qobiliyatiga mos bo'lgan kasbni aniqlashdir.

Xo'sh qiziqish nima va u o'quvchi tomonidan qanday aniqlanadi?

Qiziqish – insonning alohida insonlar, predmetlar yoki voqea – hodisalarga nisbatan muhim munosabatiga aytiladi.

Qobiliyat – berilayotgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtira olishdagi insonning xususiyatidir.

Xususiyat – bu biror talab asosida predmet, voqea – hodisalar, insonlarni boshqa predmet,voqea – hodisalar, insonlarga solishtirish, qiyoslash natijasida ular o‘rtasida paydo bo‘ladigan farqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, qiziqish bizning qaysi sohaga nisbatan alohida munosabatimiz borligini belgilab bersa, qobiliyat o‘sha sohadagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtira olishimiz imkoniyatlarini belgilab berar ekan. Demak, kasbiy muvoffaqiyatga erishishning bosh omili qiziqish va qobiliyat asosida to‘g‘ri kasb-hunar tanlashdir. Kasb-hunarni to‘g‘ri tanlagan inson o‘zini ham ma‘naviy, ham moddiy rivojlantira oladi va jamiyatga ham foydali shaxs bo‘lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asadov Y.M. “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari” - Toshkent, 2006 yil.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: O‘quv qo‘llanma. - T.: TDPU, 2003. – B. 194.
3. Ishmatov Q. - Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari. T. Ta‘lim muammolari. 1999 yil.
4. Ishmuhammedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar (ta‘lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: “Iste‘dod”, 2008. – B. 180.
5. Jalolov A. “Kasb qanday tanlanadi?” Baxt-saodatga intiluvchilar uchun. - Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010 yil.
6. Sayidaxmedov. N. - “Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash”. Toshkent. 2000 yil.
7. www.tdpu.uz
8. www.wikipedia.org
9. www.osinka.ru, <http://gerbertechnology.com.ua/siluet.php>